

40-§. Amaliy mashg'ulot

Eron, Afg'oniston va Pokistonning qiyosiy geografik tavsifi

ERON

Eron qirg'oqlari janubda Arabiston dengizi va Fors qo'ltig'i, shimoli-g'arbda Kaspiy dengizi suvlari bilan yuviladi. iqtisodiy-geografik o'rni Janubi-g'arbiy, Janubiy va Markaziy Osiyo davlatlarini bog'laydigan transport yo'llari o'tgani hisobiga qulay.


Eronning davlat tuzumi islom respublikasidir. Davlat boshlig'i — Oliy rahbar, shia musulmonlarining oliy martabali ruhoniysi (Oyatullo). Prezident esa davlatdagi ikkinchi shaxs hisoblanadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Eron hududining relyefi bir nechta tog' tizmalari va ular orasidagi botiqlardan iborat (93-rasm). Mamlakat mineral boyliklari orasida yirik neft va gaz zaxiralari eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Neft va gaz konlari asosan Fors qo'ltig'i va Kaspiy dengiziga yaqin hududlarda joylashgan. Iqlim Shimoli-g'arbiy hududlarida yumshoq va nam subtropik, markaziy va sharqiy hududlarida quruq subtropik, Fors qo'ltig'i bo'yida esa issiq va quruq tropik.


Aholisi. Tabiiy ko'payishi o'rtacha darajada bo'lib, yiliga 1,2% ga teng bo'lmoqda. Shaharlarda mamlakat aholisining 75% i istiqomat qiladi. Eng yirik shaharlari — Tehron, Mashhad, Karaj, Isfahon, Tabriz. Aholi mamlakatning g'arbiy hududlarida zich joylashgan, markaziy va sharqiy qismidagi ayrim cho'l hududlarida esa doimiy aholi umuman yo'q. Aholisining 60% idan ko'prog'ini forslar tashkil etadi. Shuningdek, ozarbayjonlar, kurdlar, arablar, turkmanlar, armanlar va boshqa millatlar yashaydi. Eron aholisining diniy tarkibida shia musulmonlari yetakchilik qiladi.

Iqtisodiyoti. Ko'p tarmoqli sanoat va qishloq xo'jaligiga asoslanadi. Sanoatining yetakchi tarmoqlari: neft va neftni qayta ishlash, gaz, metallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik va oziq-ovqat.

Davlat byudjeti uchun eng katta daromad manbai neft va gaz eksporti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari donchilik, bog'dorchilik, qo'ychilik, echkichilik va qoramolchilik. Kaspiyda baliqchilik yaxshi rivojlangan. Qora ikra eksporti bo'yicha Eron jahon bo'yicha yetakchi o'rinda turadi.



Maydoni: 1648 ming km²
Aholisi (2020): 84,2 mln
Poytaxti: Tehron



93-rasm. Eron relyef xaritasi